



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA YANGI TERMINLARNING SOHALARGA DOIR TARAQQIYOTI

Shuxrat ABDULLAYEV*

Oxunjon ABDULLAYEV*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillarida paydo bo'lgan yangi terminlarning sohalarga doir taraqqiyoti masalasiga bag'ishlangan. Tillarga o'zlashayotgan va paydo bo'layotgan terminlar sohalar kesimida tahlil qilinib, ma'nolari izohlangan. Qolaversa, yangi terminlarning sohalarga faol o'zlashayotganligi sabablari va omillari xususida mulohaza yuritilib, sabablari aniqlashtirilgan. O'rganilayotgan tillarga boshqa tillarning ta'siri, shuningdek, ikki tilning o'zro ta'siri misollar asosida yoritib berilgan. Tillarda faol qo'llanilayotgan ba'zi terminlarning bir-necha sohalar doirasida uchrashi hamda ulardagi ma'no o'zgarishlari xususida fikr bildirilgan. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi yangi terminlarning ma'nolari qiyosan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: termin, yangi termin, neologizm, soha lug'atlari, olinma so'zlar, zamonaviy leksika, o'zlashma so'z, platforma, innovatsiya, nanotexnologiya

The Development of New Terms in the Uzbek and Karakalpak Languages Across Field

Abstract

This article is devoted to the development of new terms in the Uzbek and Karakalpak languages. Terms borrowed and emerging into languages are analyzed in the context of fields, and their meanings are explained. In addition, the reasons and factors of the active assimilation of new terms into various fields were considered, and the reasons for this were clarified. The influence of other languages on the studied languages, as well as the mutual influence of two languages, is highlighted on the basis of examples. Opinions are expressed about the occurrence of some terms actively used in languages within the framework of several fields and changes in their meaning. The meanings of new terms in the Uzbek and Karakalpak languages are subjected to a comparative analysis.

Keywords: term, new term, neologism, industry dictionaries, borrowed words, modern vocabulary, borrowed word, platform, innovation, nanotechnology

Ma'lumki, har bir til o'z lug'at boyligiga ega bo'lar ekan, o'zining ichki qonuniyatlari asosida doimiy ravishda rivojlanib boradi. Shuningdek, jamiyatda

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Qoraqalpoq davlat universiteti.

* Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda, o'z tiliga ega bo'lgan xalq til birliklarining o'zga xalqlar bilan siyosiy, ma'naviy, madaniy, iqtisodiy aloqalari natijasida ham boshqasiga o'tib borishi kuzatiladi. Bu holat manbalarda o'z qatlam va o'zlashgan qatlam guruhi sifatida tasniflanadi.

O'zbek va qoraqalpoq tillari lug'at boyligining katta qismi umumturkiy leksemalar bo'lib, ularni o'zlashma qatlam leksemalaridan farqlashning o'ziga xos belgilari ham mavjud.

XIX-XX asrlarda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o'zgarishlar tilda ham o'z aksini topa boshladi. Bu davr so'zlarning o'zlashish va so'zlarning iste'moldan chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo'ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so'zlar, balki ko'plab inglizcha, xitoycha, fransuzcha, ispancha so'zlar rus tili orqali kirib kelgan bo'lsa, leksikamizdagi ko'p miqdordagi forsha-arabcha so'zlar nafaqat so'zlarga aylandi yoki iste'moldan chiqib ketdi (A.Madvaliyev, 2017, 84-bet).

XX asr o'zbek va qoraqalpoq tilshunosligi uchun yuksalish asri bo'ldi. Ona tili darsliklarining yaratilishi, tilshunoslik nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi, ilmiy jurnallarning nashr etila boshlashi, ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining yuzaga kelishi, filologik va ensiklopedik lug'atlarning chop etilishi o'zbek va qoraqalpoq tilshunoslari tomonidan yaratilgan katta meros hisoblanadi.

XX asr boshlarida o'zbek va qoraqalpoq tillarining fan sifatida o'qitila boshlashi, maktablarda grammatikaning o'qitilishi ikki adabiy til me'yorining shakllanishiga sabab bo'lgan edi. O'zbek leksikografiyasi shu davrda ham nazariy, ham amaliy ko'rinishda – yana qayta yangi bir fan sifatida shakllandi. XX asrda o'zbek tili lug'atchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma'rufov, Sh.T.Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar (H.Dadaboyev, 2020, 29-bet).

O'tgan asrning 80-yillariga kelib o'zbek lug'atchiligi borasidagi ishlar susaydi, ilm-fan yangiliklari, leksikografiya sohasidagi nazariy ishlar amaliyotga tatbiq etilmadi, zamonaviy yangi lug'at turlari yaratilmadi, tilda mavjud lug'atlar mukammallashtirilib qayta ishlanmadi, jahon leksikografiyasi yutuqlariga tayanib ish tutish, yig'ilgan tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ishlari amalga oshirilmadi. Natijada o'zbek va qoraqalpoq tillari lug'atchiligi rus lug'atchiligi va jahon lug'atchiligidan orqada qolib ketdi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, leksikografiyadagi keyingi davr o'zgarishlari to'xtab, bu sohada keskin o'zgarishlar shu davrdan so'ng deyarli sezilmadi (Бекбаўлов, 1971, 65 бет).

O'zbek va qoraqalpoq tiliga sohalarga doir o'zlashgan zamonaviy so'zlar hozircha tilshunoslikda maxsus tadqiq etilgani yo'q. Tilimizga o'zlashgan bunday terminlarni quyidagicha sohalarga doir guruhlariga ajratish mumkin:

1. O'qitish va ta'lim bilan bog'liq o'zlashgan so'zlar guruhi: *reyting, onlayn ta'lim, HEMIS, platforma, raqamli texnologiya, zoom, Quiz test, multimedia* kabilar.

2. Tibbiyot va veterinariyaga oid so'zlar guruhi: *pandemiya, koronavirus, COVID, vaksinatsiya* kabilar.

3. Dengizchilik va kemasozlikka oid so'zlar guruhi: *yaxta, kater, trauler* kabilar.

4. Transportga oid so'z va iboralar guruhi: *elektromobil, mikroavtobus, skuter, alkantara, LED chiroq, tonirovka, avtomaktab, aerobus, layner* va boshqalar.

5. Sanoat va qurilishga oid so'zlar guruhi: *city, hotel, hostel, trest, konsern, konveyer* kabilar.

6. Harbiy soha va texnikaga oid so'zlar guruhi: *harbiy dron, ballistik raketa, multiradar, bodykamera, sun'iy intellekt* kabilar.

7. O'rin-joy va makon bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar guruhi: *park, skver, city, tungi klub, avtopark, bolalar maydonchasi* kabilar.

8. Sport sohasi bilan bog'liq so'z va atamalar guruhi: *VAR, videotakror, UFC, oktagon, match, golkipер, armrestling, bodybuilding, fitness, ring*, kabilar.

9. San'at, o'yin, hordiq chiqarish, musiqaga oid so'z va atamalar guruhi: *fashion week (modalar haftaligi), galakonsert, duet, klip, shou, ball, piknik* kabilar.

10. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid so'zlar guruhi: *press-konferensiya, kongressmen, spiker, moderator, brifing, matbuot anjumani, ko'chma qabullov, videoselektor* kabilar.

11. Texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar guruhi: *chip, sim karta, plastik karta, robototexnika, nanotexnologiya, videoregistrator, magicar* kabilar.

12. Kompyuter texnologiyasiga oid so'z va atamalar guruhi: *fayl, hub, printer, kserokopiya, skaner, planshet, naushnik (quloqchin), diskovod* kabilar.

13. Kiyim-kechak, mato va pardoz buyumlarini ifodalovchi so'zlar guruhi: *jinsi, pidjak, smoking, fen, mushkanbar, kosmetika, pedikur, menikur*, kabilar.

14. Turli kasb va toifadagi kishilarni ifodalovchi so'z va atamalar guruhi: *menejer, investor, dizayner, broker, frilanser, makler, blogger, vayner, marketolog* kabilar.

15. Iqtisodiyot sohasiga doir tushunchalarni ifodalovchi so'zlar guruhi: *investitsiya, eksport, marketing, barter, import, kredit, mikroqarz, subsidiya* kabilar.

Bunday mavzuiy guruhlarini yana davom ettirish mumkin. Eng muhimi, tilimiz lug'aviy qatlamidan mustahkam o'rin olayotgan ana shunday inglizcha, fransuzcha, ruscha, italyancha, nemischa, ispancha o'zlashma so'zlarni to'plash, ularning keyinchalik alohida-alohida, umumiy izohli lug'atini yaratish, bunday

o‘zlashmalarning imlosi, transliteratsiyasi muammolari bilan jiddiy shug‘ullanish hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq tilshunosligining dolzarb muammolari hisoblanadi.

Istiqlol yillaridan so‘ng tilimizga jamiyatdagi turli sohalarining rivojlanishi va yangilanishi natijasida g‘arb tillaridan so‘z o‘zlashtirishni alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Jumladan, ko‘pgina sohalarda qo‘llanayotgan *nanotexnologiya*, *innovatsion* va zamonaviy texnologiyalarni o‘zida aks ettiruvchi ma’lum bir tushunchalar borki, ular qo‘llanayotgan ma’lum bir fan tili nomi bilan birga kundan kunga keng qo‘llanilib bormoqda.

Bizga ma’lumki, *ingliz*, *fransuz*, *rus*, *ispan*, *arab* va *xitoy* tillari jahon tillari sifatida yetakchi mavqega ega bo‘lib, BMTning ish hujjatlari shu tillarda yuritiladi. Hozirda tilimizga o‘zlashgan va ayni paytda o‘zlashish darajasi faol hisoblanayotgan inglizcha so‘zlarning o‘zbek hamda qoraqalpoq tili lug‘at boyligidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ayni paytda bunday so‘zlar o‘zga tilga o‘zlashishidan tashqari qisqa muddat ichida so‘z yasash bazasi sifatida ham faol rol o‘ynamoqda (Islomov, 2020, 88-bet).

3. Terminlarning ma’lum qismi turli muqobillarda har xil qo‘llanildi. Chunonchi, rus tilidagi *menejer* (*menedjer*) – kompaniya, korxona, bank rahbari, qoraqalpoq tilida *menedjer* – kompaniya, kárxana, bank baslıǵı; *auditor* – korxona yoki tashkilotning hisob-kitoblari holatini nazorat qiluvchi malakali hisobchi, *auditor* – kárxana yoki shólkemniń esap-kitaplar jaǵdayın qadaǵalawshı tájiriybeli esapshı; *biznes* – bu daromad, foyda keltiradigan tadbirkor iqtisodiy faoliyat, *Biznes* – bul dáramat, payda keltiretuǵın isbilermennıń ekonomikalıq iskerligi; *devalvatsiya* – qog‘oz pullarning oltin yoki chet el valyutasiga nisbatan rasmiy qadrsizlanishi, *devalvaciya* – qaǵaz pullardıń altın yaki shet el valyutasına qaraǵanda rásmiy qádirsizleniwi kabi variantlari iste’molda bo‘lib turibdi (Пирниязова, 1994, 64 бет).

Albatta, bunday turlicha ifodalash soha mutaxassislarini chalkashtiradi, axborot almashinuvini qiyinlashtiradi. Shuning uchun leksikologiyadagi asosiy qoidaga - “bitta so‘z bitta tushunchani anglatishi lozim” erishish eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Inglizcha o‘zlashma so‘zlar sirasidagi *provayder*, *sammit*, *imij*, *reyting*, *menejment*, *menejer* kabi so‘zlarning o‘zbek tilining izohi lug‘atidagi ma’nolari kuzatilganda, bu kabi so‘zlarning o‘zlashishi bilan bog‘liq ma’no o‘zgarishlari lug‘atlarimizda qayd etilganini kuzatish mumkin.

XIX asr oxiri – XX asr oxirigacha bo‘lgan davrda olinma so‘zlar bevosita rus tilidan o‘zbek va qoraqalpoq tiliga qabul qilingan. *Zavod*, *mashina*, *telegramm* leksemalari ham shunday jarayonni boshidan kechirgan. Mazkur leksemalar dastlab sanoat va axborot-kommunikatsiya sohaları termini sifatida o‘zbek tiliga kirib kelgan. Ma’lum vaqt o‘tgach, o‘zbek va qoraqalpoq tili aholisi uchun tushunarliklik kasb etgan umumiste’mol leksikasiga aylangan (Хожиев, 1994, 20 бет). Nominativ vazifa bajargan ushbu so‘z o‘sha davrdagi boshqa ko‘plab so‘lar kabi, asosan, og‘zaki nutq

orqali o'zlashgan. Boshqa tildan yangi leksikaning kirib kelishini ikki holat bilan izohlash mumkin:

1. Barcha leksika tilga, avvalo, nom sifatida kirib keladi. Bunda ba'zi leksemalar biror narsa-hodisa yoki harakat-holatning ikkinchi nomi ya'ni tilda mavjud bo'lgan so'z yoki termin bilan almashadi. Masalan: *gepatit – sariq, revmatizm – bod, pnevmoniya – zotiljam* va b.

2. Umumqo'llashdagi leksemalar yoki tildagi imkoniyatlardan (dialektlardan, so'z yasash usullari) hosil qilinadi. Masalan: *Narvon – shoti – zangi; do'ppi – kallapo'sh – taqiya* va b (Kadirbekova, 2017, 44-bet).

Fan va turmush lug'ati o'rtasida to'g'ridan to'g'ri va yaqin aloqa mavjud. Har qanday fan o'sha xalqning tili va nutqining tafakkuri erishgan yutuqlardan boshlanadi. Adabiy tilga yangi leksemalar o'zlashtirilishining mavjud nolisoniy omillar qo'llanadigan tushuncha yoki narsa-hodisaning ijtimoiy hayotdagi muhimligi va dolzarbligi bilan bog'liq. Zamonaviy leksikani badiiy nutqda qo'llashning asosiy sababi badiiy tasvir maqsadiga mos vaziyatni yaratish va yetkazishdir.

Shu nuqtayi nazardan badiiy so'z ustalari o'z asarlarida yangi leksikadan foydalanadilar. Bu ijodkorning so'z qo'llash mahoratiga bog'liq. Ta'kidlash lozimki, zamonaviy leksika badiiy nutqda obrazlilik muammosini hal etishda ko'p vazifa bajaradi. Yangi leksemalarni qiyosiy tadqiq qilish murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki bunda leksemalarning o'zigina emas, balki shu sohaga doir bir qancha ma'lumotlar aks etadi.

Yangi leksemalarning muqobilini topish va qo'llash esa ma'noni to'la ochib bera olmaydi. Lug'aviy muqobillik ko'pincha, leksik birlik haqida to'g'ri tasavvur uyg'otmaydi, chunki ikki tildagi o'zaro muqobil terminlar turli tushunchalarni yoki bir-biriga yaqin bo'lgan, lekin ma'no ko'lamining turlicha ekanligi bilan farqlanadigan tushunchalarni ifodalaydi. Shu sababli yangi leksemalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish va ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish yo'llarini shunchaki bayon qilib berish emas, balki shu tilning butun sohalariga oid zamonaviy leksemalarning kompleks tadqiqini amalga oshirish zarur. Buning uchun, avvalo, yangi so'zlarning til lug'aviy tizimidagi maqomini va uning yangi bo'lmagan leksemalardan farqlaydigan belgilarini aniqlab olish joiz.

Demak, yangi (zamonaviy) leksika tilimizning lug'at boyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ammo, bunday leksemalarni o'zbek tilida ham qoraqalpoq tilida ham qo'llashda kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, teledasturlar va reklama e'lonlarida yangi leksemalarni o'rinsiz qo'llash va yangi ochilayotgan obyekt nomlariga mos bo'lmagan yoki xato yozilyotganligi bu boradagi tadqiqotlarning kam ekanligining isbotidir. Bunday terminlar tilga o'zlashgandan keyin umumtil leksikasiga aylanganda til madaniyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mana shu jihatini lingvokulturologiya sohasi bilan birgalikda tadqiq qilish ishimizning asosiy

mezonlaridan biri hisoblanadi. Til madaniyatning fenomeni, madaniyatning tashuvchisi sifatida o'rganiladi.

Har bir soha leksikologiyasini tartibga solishda soha mutaxassislarining fikrlari va takliflarini hisobga olish kerak. Soha mutaxassislari bilan tilshunoslar (leksikologlar)ning hamkorlikdagi faoliyati atamashunoslikni rivojlantirishda va yangi lug'atlar tuzishda eng katta qadam hisoblanadi. Leksikologiyada so'zlarni tartibga solishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. Har bir yangi kirib kelgan tushunchaning mohiyatini to'la va tushunarli tarzda izohlash;

2. So'zlarni izohlashda aniqlik bilan bir qatorda soddalik muhim ahamiyat kasb etamog'i lozim;

3. Boshqa tillardan kirib kelgan va kelayotgan so'zlarning barchasini o'zbekcha yoki qoraqalpoqcha muqobilini topish shart emasligini ham hisobga olish kerak;

4. Har bir sohada yangidan kirib kelgan so'zlarning umumiste'mol doirasini belgilab olish, ulardagi sinonimiya vujudga kelganda eng maqbulini tanlay olish lozim;

5. Yangi terminlarning nutqda ishlatilishi va adabiy til me'yorlari hamda til madaniyatiga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi lozim (Islomov, 2020, 50-bet).

Xulosa qilib aytganda, o'tgan yuz yil ichida jamiyat taraqqiyoti tezlashdi. Insonlar ongi, ularning dunyoqarashi ham shunga muvofiq soddalikdan murakkablikka qarab o'zgardi. Shuningdek, insonlarning kundalik iste'moldagi so'zlari ham nutqiy rivojlanishda bo'ldi, ko'p ma'nolilik kasb etdi. Shunga muvofiq bugungi kunda zamonaviy lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj ham kuchayib bormoqda. Sohalarga doir yangi terminlarning o'rganilishi bunday lug'atlarning yaratilishi uchun ma'lumotlar bazasi vazifasini bajarishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

Madvaliyev A. (2017). *O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari*. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Dadaboyev H. (2020). *O'zbek terminologiyasi*. Nodirabegim.

Бекбаўлов О. (1971). *Қарақалпақ тилиндеги озлестирме созлердин қолланылыўы*. – *Қарақалпақ тили бойынша изертлеўлер*. – Нөкис: Қарақалпақстан.

Islomov I, Bobojonov Sh. (2007). *O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati*. Yangi asr avlodi.

Пирниязова А. (2017). *Қарақалпақ тилиндеги жәмийетлик-сиясий лексиканың қәлипlesiў ҳәм раўажланыў жоллары*.

Ҳожиёв А. (1994). *Мустақиллик шароитида ўзбек тили лугат таркибининг ривожланиши асослари*. // Ўзбек тили ва адабиёти.